

---

## YOZ O'TMOQDA COZ! "OQ OLTIN" OROMGOHIDA BOLAJONLAR YOZGI TA'TILNI MAROQLI O'TKAZMOQDALAR

"Nayman" MFYda joylashgan bolalar yozgi sog'lomlashtirish oromgohi joriy yilning 1-mavsumi uchun 126 nafar bolajonlarni qabul qildi.

Oromgohda o'tkazilayotgan shaxmat-shashka, stol tennis, futbol, voleybol musobaqalari, turli mavzulardagi davra suhbatlari, bir qator interfaol o'yinlar dam oluvchilarning har bir kunini mazmunli va maroqli o'tishiga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, bolalarni bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish hamda kitobxonlikni keng targ'ib qilish maqsadida oromgohda kitob fondiga ega bo'lgan kutubxona tashkil etildi, zarur miqdordagi kompyuterlar bilan ta'minlandi.

Shu bilan birga mavsum davomida oromgohda faoliyat yuritadigan pedagog xodimlar, tarbiyachilar, yetakchilar, tibbiyot xodimlari ro'yxati to'liq shakllantirilib, xozirda ular faoliyat yuritmoqdalar.

2023-06-17 09:11:49